

SIYOSIY METAFOROLOGIYANING QIYOSIY TAHLILI

Abdiraxmonova Gulshanoy

Samarqand Davlat Chet tillari instituti 2-kurs magistranti (xorijiy til va adabiyoti ingliz tili)

Annotatsiya: *Maqolada siyosiy nutqda metaforalardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari chet ellik talabalarga siyosiy nutqda yashirin ma'nolarni tushunishga o'rgatishda foydalanish mumkin.*

Kalit so'zlar: *siyosiy nutqdagi metafora, kognitiv va kommunikativ paradigma, metaforalarning lingvistik nazariyasi, izomorfik metafora.*

KIRISH

Hozirgi davrda metaforaning lingvistik nazariyasi siyosiy diskursni tahlil qilish usullaridan biri bo'lib qoldi. Metaforada har qanday matnni to'liq tushunishni ta'minlovchi ma'nolar bor. Xorijiy talabalar siyosiy diskursdagi niqoblangan, yashirin ma'nolarni tushuna olishlari uchun ular adekvat bilim va ko'nikmalarni egallagan bo'lishlari talab qilinadi. Metaforaning lingvistik nazariyasida bu yashirin ma'nolarni tushuntirish usullari ishlab chiqilgan, bungacha metaforaning ontologik va konseptual rolini tushuntirishda uzilishlar bor edi. XX asrning so'ngi o'n yilliklarida Jon Lakoff, V.N. Teliya, A.N. Baranov, N.D. Arutyunova, A. Vejbitskayaning ilmiy ishlari tufayli bu murakkab lisoniy fikrlash turli tomonlardan o'rganila boshlandi.

Og'zaki va yozma nutqning paydo bo'lishi, nutqiy muloqotda matnlarni tushunish muammolari tilshunoslarning diqqat markazida turibdi. Tilshunoslikda kognitivkommunikativ yo'nalish paydo bo'ldi. Olimlar matnni anglashning kognitiv jarayonlariga e'tibor qaratdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslik fanida metafora o'rganilish ob'ekti sifatida bir qancha o'zgarishlarga uchradi. Klassik tilshunoslikda metafora leksik-grammatik darajada o'rganilgan, keyin adabiyotshunoslikda nutqning stilistik figurasi sifatida qarala boshlandi. Faqat XX asrning 70 - yillari oxiri, 80- yillari boshidagina metafora insonning tashqi olamni bilishning muhim kognitiv vositasi sifatida tushunish shakllana boshladi. N.D. Arutyunova fikriga ko'ra, metaforani o'rganish "amaliy nutqni o'rganish sohasiga va bilish va anglashga, konseptual tizimlarga va, nihoyat, sun'iy intellektni modellashga" o'tdi [1.S. 5-32].

Frazeologizmlar, konseptlar, nutqiy harakatlar sxemalari va stsenariyalari, nutqiy muloqotdagi taktika va strategiyalar hamda metaforalar muloqot jarayonida takrorlanaveradi, va shunga muvofiq ravishda ular muloqot ishtirokchilari tomonidan tushuniladi. Bu shuni anglatadiki, muloqotchilarning tushunish uchun kognitiv harakatlari ham ma'lum bir qoidalarga bo'ysunadi, tadqiqotchilarning, metakuzatuvchilarning vazifasi shundan iboratki, bu qoidalarni tushunish uchun ularni tushunish va anglash yo'llarini ishlab chiqishdir. Til egasi, qoidaga ko'ra, metaforani og'zaki va yozma nutqda tushuna olish ko'nikmasiga ega, lekin bu kognitiv ko'nikmalar ong ostida yashiringan bo'ladi.

Hozirgi davrda tilshunoslarning bu qoidalarni aniqlash va tasvirlashga urinishlarini ko'p ham muvaffaqiyatsiz deb bo'lmaydi.

A. N. Baranovning ishlarida metaforaning kognitiv nazariyasi asosiy tezi quyidagicha beriladi: metaforlashish jarayonlarining asosida yangi ma'noni so'zlarning eski ma'nolari bilan ifodalash imkonini beradigan bilimlar strukturasi qayta ishlash jarayoni yotadi [3].

Lekin biz boshqa konsepsiyaga qo'shilamiz. Bu konsepsiyaga ko'ra so'zning obrazi metafora tuzilishida ishtirok etadigan "eski" chuqur ildizli semalardan olingan odatiy ma'nolarni qayta joylashtirish va ajratib olish asosida yaratiladi [2. S.155].

Shunday qilib, ilk holatdagi so'zdan yoki ifodadan semani ajratib olishga asoslangan kognitiv proseduralar natijasida yangi obraz yoki yangi hodisaning nomi paydo bo'ladi. Agar biz ilk manba-so'z metaforaga qanday kalit belgilarni berganligini bilsak, shunda biz metaforani o'rganib, uning "tuzilishi"ni tushunishimiz mumkin. Bunday yondashuv metaforaga turli rakurslardan qarashga, ya'ni uni "tepadan-pastga", butun holida, ichki mazmunini ochib, metaforaning "qurilish g'ishtchalarini" aniqlab, keyin uning yangi semantikasi haqida hukm qilishga imkon beradi.

Metaforalar odatdagi so'z va ifodalardan tuzilgan, lekin ular shunday tuzilganki, odatdagi so'zlar yangicha ko'rinishda aks etib, obrazli jaranglaydi. Barcha metaforalar atrofimizni o'rab turgan dunyodagi va til muhitidagi voqea va hod isalarga, faktlarga bog'langan va ulardan kelib chiqadi. Bu metafora tushunchasi asosida tabiat tuzilishi va sotsium haqida inson tasavvuri yotadi degan fikrlashga olib keladi. Ko'pchilik metaforalar asosida arxetip yotadi. Arxetip deyilganda birinchi obraz, dunyoni qabul qilishning boshlang'ich modeli tushuniladi [4].

Ontologik nuqtaiy-nazarda bo'lgan olimlar metaforaning ona tilida gapiruvchi barcha kishilarga tanish bo'lgan bir qancha universal va arxetiplarga asoslangan ma'lum bir guruhlarini tuzishgan. Metaforaning siyosiy diskursdagi tasniflanishiga bir qancha misollar keltiramiz.

1. Izomorf metaforalar (hayvonot dunyosi bilan bog'liq).

Internetda kalamush poygasi ketayotgan bir paytda, Putin xalqaro arenada Rossiya pozitsiyasini mustahkamlashda davom etmoqda.

2. Somatik metaforalar

3. Qarindoshlik metaforalari.

4. Tabiat bilan bog'liq metaforalar.

5. Makon va mo'ljal metaforalari.

6. Emotiv metaforalar (insonning his-tuyg'usi va tashqi muhit o'rtasidagi bog'lanishlar).

7. Gastronomik metaforalar. Ma'lumki, so'zlar kishilarning fikr va emotsiyalarini ifodalaydi va nutqiy muloqot qatnashchilarining emotsiya va fikrlariga ta'sir qiladi. Metaforalar o'quvchi/hamsuhbatning hissiyotiga ta'sir qilishning eng muhim vositasi. Metaforik matnni tushunish va uning diskursda ishlatilish maqsadini tushunish uchun interpretator lug'aviy aniqlashtirishdan tortib, so'zlarning chuqur ma'nosini ochish uchun etimologiyasiga murojaat qilishgacha, uning qo'llanilishining nutqiy taktikasi, adresatning hissiyoti, yurish-turishi, e'tiqodlariga ta'sir qilishini o'rganishgacha yo'lni bosib o'tadi.

Metafora ma'nosini ochishdan keyingi bosqichda kommunikativ kenglikda metaforaning rolini aniqlash fazasi keladi. So'ngi amaliy ishlarning maqsadi metaforaning diskursda qo'llanilishining mumkin bo'lgan variantlarini aniqlashdir. Bunda bizni gapiruvchi metaforani qanday maqsadda ishlatgani, retsiyent uni qanday qabul qilgani va hokazolar qiziqtiradi. Masalan, tabiatga oid metaforalar hissiy holatni ifodalashi mumkin, "norozilik to'lqini" metaforasi bir kishining emas, kishilar guruhining holatini bildiradi, shuning uchun suv harakati belgisi, uning ko'tarilishi, pasayishi, balandligi, pastligi, kuchi tanlab olingan. Qahr-g'azab emotsiyasini beradigan bu metafora asosida suv mavjlari bilan bo'g'liq analogiya yotibdi. Tabiat bilan bog'liq metaforalar siyosiy diskursda ko'p ishlatiladi, siyosiy iqlim, turg'unlik epoxasi, muzlatilgan narxlar, siyosiy kar'era quyoshining botishi, qahr-g'azab bo'roni, olqishlar momaqaldirog'i.

Metafora semantik va emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lganligi uchun siyosiy diskursda keng ishlatila boshladi. Bunda debat ishtirokchilari faqat faktlarga emas, emotsional baholarga ham e'tiborlarini qaratadilar, faktlar haqidagi fikrlar, odatda, buzib ko'rsatiladi. Amerika ommaviy axborot vositalari Trampning seksual majburlashi "qurbonlari" dan intervyu oladi. Bu ayollarning har bir "so'ziga" ishonishdi, va Trampning salbiy obrazini yaratishdi. Respublikachilar partiyasidan AQSH Prezidentligiga asosiy nomzod Donald Tramp o'z raqibi demokrat Xillari Klintonni isbot keltirmasdan "dunyo miqyosidagi yolg'onchi" deb atadi.

Neytral, hatto ijobiy ma'noli so'z "asoschi" bu yerda salbiy bahoga ega bo'ladi. Bu gapni ayblash taktikasini keltirib chiqaradigan so'z o'yini deb tushunish mumkin. Misol qilib keltirilgan metaforalar siyosiy ta'sir ko'rsatishning kuchli vositasiga aylanadi. Bu so'zlar asosan ong va ongostining hissiy sohasiga ta'sir qiladi. "Yorliq yopishtirish" prinsipi bahslashishning eng g'irrom usullaridan biridir [6]. Bu taktika asosida assosiativ bog'lanishlar, avtoritetning dalil-isbotsiz obro'si pasaytirilishi yotadi. Bu usullar kishilar ongiga ta'sir qiladi, ularning siyosiy shaxslarga ishonchsizligini oshiradi.

Zamonaviy jamiyatda siyosiy hayot siyosiy partiyalar, ularning liderlari, turli siyosiy g'oyalar bilan bog'langan [7]. Bu kontekstda fikrlar turli-tumanligini ifodalaydigan siyosiy metafora siyosiy diskursning ajralmas qismiga aylanadi.

Siyosiy diskursdagi metaforalar tahlili quyidagi savollarga javob berishi kerak: metaforalar qanday maqsadda ishlatilayapti, ular nimani bildiradi, ular kishilarning yurish-turishi, kayfiyati va ongidagi axborot maydoniga qanday ta'sir qiladi? Metaforalar metafikrini tushunish jarayoni bir qancha bosqichdan o'tadi. Avval metaforalarning "qurilish materiallari" aniqlanadi, keyin kommunikativ kenglikda metaforaning pragmalingsistik roli oydinlashtiriladi. Metaforalarni tushunishning bu bosqichlari xorijiy talabalarga siyosiy diskursda metaforani ishlatilishini o'qitish uchun mashqlar tizimini yaratishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. М.: Прогресс, 1990.

2. Шляхов В.И. Саакян Л.Н. Текст в коммуникативном пространстве: Монография. М., 2015.
3. Баранов А.Б. Дескрипторная теория метафоры. Языки славянской культуры,
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. Высш. Учеб. Заведений. М.: Академия. 2001.
5. Толковый словарь живого великорусского языка. URL: <http://slovardalja.net/word.php?wordid=5688>
6. Поварнин С.И. Искусство спора. URL: http://www.goldentime.ru/wfb_01.htm (дата обращения: 15.03.2012).
7. Linkevisiute Vilma. Conceptual metaphors in Gordon Brown's Political Discourse (2007-2008). URL: http://www.kalbos.lt/zurnalai/23_numeris/11.pdf